

ONA TILI DARSLARIDA IJODIY METODLARNING O'RNI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi

3-kurs 312-guruhan talabasi

Karimova Nigora

Annotatsiya : Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini shakllantirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. 7-sinf ona tili darsligi asosidagi mashg'ulotlar misolida o'yinli metodlar, interfaol topshiriqlar, baholashning noan'anaviy shakllari, shuningdek fanlararo integratsiya elementlari yoritiladi. Tavsiya etilayotgan metodlar o'quvchilarning til materialini ongli o'zlashtirishiga, shaxsiy faolligini oshirish va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, o'yinli metod, kompetensiyaviy yondashuv, integratsiya, baholash, ijodiy fikrlash.

Kirish

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirishda o'quvchilarning o'quv fanlariga, xususan ona tiliga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yangi avlodni tarbiyalash uchun o'qituvchi zamонавиј AKTga oid bilimlarga ega bo'lishi lozim. Hozirgi yoshlar axborot texnologiyalarini bizga nisbatan yaxshiroq bilishi o'z ustamizda ko'proq ishlashimiz shartligini, har bir darsni turli o'yin va topshiriqlar bilan tashkil qilishimiz zarurligini anglatadi. 4K yondashuvlar ya'ni kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlashlarni o'z ichiga oladi. Nutqiy kompitensiya til ta'limingining 4ta komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'limda innovatsion

metodlardan foydalanish orqali o‘quvchining individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni o‘z fikrini ifodalashga, ijodiy yondashishga, mustaqil tahlil qilishga o‘rgatish mumkin. Bu borada darslarda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi topshiriqlardan foydalanish, o‘yinli va interfaol metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tinglab tushunish (muhim mavzulardagi asosiy axborotni radio va teledasturlarni tushunish); gapirish (o‘quvchi monologik, dialogik og‘zaki nutq turlarida o‘z shaxsiy fikrlarini bildirish, mavzu doirasida qarashlarini namoyish qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish); o‘qish mavzuga oid ma’lumotlarni, adabiy-badiiy matnlarni o‘qish; yozish (esse, diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog‘ozlarini yuritishni bilish).

Asosiy qism

Ona tili fani asosida o‘quvchida shakllantiriladigan ko‘nikmalardan biri bu o‘qib tushunishdir. Natijada o‘quvchi darslikda qoidalar o‘rniga ko‘proq matnlar bilan ishlaydi va ularda o‘qib tushunish ko‘nikmasi rivojlanadi. O‘quvchida o‘qib tushunish ko‘nikmasini ona tili fani rivojlantirishi hisobiga o‘z-o‘zidan boshqa fanlarda ham o‘quvchi diqqatini jamlay oladi, eshitgan ma’lumotlarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllana boradi. O‘quvchilarda yozish ko‘nikmasi matn hikoya tuzish va shu kabi topshiriqlar asosida amalga oshiriladi.

Ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning o‘quv faoliyatini faollashtirish, tilga nisbatan ijodiy munosabatini shakllantirish so‘nggi yillarda ta’lim sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ta’limning kompetensiyaviy yondashuvi asosida shakllangan metodlar o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Didaktik o‘yinlar, interfaol usullar, vizual-ijodiy faoliyat, integratsiyalashgan topshiriqlar aynan shu maqsadga qaratilgan.

O‘qituvchining vazifasi – til materialini quruq yodlash emas, balki uni tushunish, amaliy hayotga tadbiq etish, fikr bildirish va o‘z pozitsiyasini shakllantirishga undovchi sharoit yaratishdan iborat. Bu esa o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish orqali amalga oshiriladi. Darsning jozibadirligini oshirish yani qachonki o‘qituvchi o‘z fanini yaxshi ko‘rsagina o‘quvchiga shu fanga muhabbat qo‘yishiga yordam beradi.

Tajriba ishtirokchilari. Tajriba sinovi Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 88-son umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilari bilan o'tkazildi. O'quvchilar soni 24 nafar bo'lib, ularning o'zlashtirish darajasi turlicha. Biz tajribamizda ijodiy yondashuv asosidagi metodlar o'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan qiziqishi va faolligiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga harakat qildik.

Tajriba materiallari. 7-sinf darsligidagi “Elektromobillar” mavzusiga tayangan holda metodlar ishlab chiqildi. Tajribada quyidagi metodik vosita va usullardan foydalanildi: “Issiq kartoshka” metodi. Bu usul orqali o'tilgan mavzuni so'rash mumkin. Bunda har bir o'quvchilar birin ketin turib qo'llaridagi kaptokcha yoki buyumni bir-biriga uzatadi. Doskaga chiqqan bir o'quvchi teskari turgan holatda kaptokcha kimda ekanligini bilmagan holda “to'xta” ishorasini beradi. Kaptokcha kimning qo'lida qolsa savolga o'sha o'quvchi javob beradi. “Issiq kartoshka” da savol aniq bo'ladi javob beruvchi shaxs noma'lum bo'ladi.

Har bir to'g'ri javob 1 balldan baholanadi.

1. Kelishik deb nimaga aytildi?

2. Kelishiklar qo'shimchaning qaysi turiga kiradi ?

3. Elektromobillar diqqatini tortishga tez rivojlanib ketishga nima sabab bo'lmoqda?

4. Elektromobil va avtomobil qaysi jihatlariga ko'ra farqlanadi?

“Sharada” – she'riy jumboq. Og'zaki boshqatirmalar orasida she'riy topishmoqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Sharadalar oddiy topishmoqlardan ba'zi xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Sharadani yechishda so'zning har bir bo'g'iniga kerak bo'lsa, har bir harfiga e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi. Sharada she'riy topishmoqning javobini topishda har bir tovush va bo'g'in ahamiyatga ega. Quyida beriladigan sharadalardan o'quvchi kelishik qo'shimchalarini aniqlaydi va turini yozadi hamda sharadada yashiringan so'zni topishi kerak bo'ladi.

Mazali mevaman, ajoyib ne'mat,

Ikkinci bo‘g‘inida qisqa bir fursat

Teskari o‘qilsa oxirgi bo‘g‘in,

Qotgan suv va yana sovuq harorat

(Uzum)-(Muz)

Bu taom to‘yimli, quvvatli emish,

Ikkinci bo‘g‘inida kattakon idish.

Birinchi bo‘g‘iniga “Z” harfini qo‘sish

Solmasang, bemaza har qanday yemish.

(Tuxum)-(Tuz)

Tajriba jarayoni. Dars 5 bosqich asosida tashkil etildi. Kirish qismida motivatsion savollar, elektromobillar mavzusi bo‘yicha umumiy tushuncha berildi. Faoliyatga jalg etishda esa guruhlarga bo‘linib, topshiriqlarni bajarish: chizma, sharada, savol-javob, intervyu metodlaridan foydalanildi. O‘quvchilar yozma mashqda matn asosini tushunib berilgan topshiriqlarni bajarishdi, kelishik qo‘sishmchalarini ajratish vazifasini bajarishdi, tinglab tushunishda QR kod orqali video tomosha qilib, mantiqiy savollarga javob berishdi, gaprishda o‘quvchilarni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, bunda bizga intervyu metodi asqotadi. Bunda o‘quvchi kreativ fikrlashga undaydigan savollarni intervyu o‘yini tarzda beriladi va shu payt mikrafondan foydalanilsa jonli muhitni yanada qiziqarliroq bo‘lishiga yordam beradi. Masalaga yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida tashkil etildi. O‘quvchilarni baholashda futbol o‘yini modelidan foydalanildi va dars ohirida yakuniy xulosa chiqarildi. Darsda barcha o‘quvchilar o‘z imkoniyatiga qarab faol ishtirok etishdi. Ayniqsa, passiv o‘quvchilar ham chizma va logotip tayyorlashda tashabbus ko‘rsatishdi.

O‘quvchilarni baholash tartibi: O‘quvchilarning har bir bergan to‘g‘ri javoblari uchun 3 va 1 ballik tizimida baholanadi. 3 ball bitta topshiriqning ichida bir nechta vazifalarni

bajarsa qo‘yiladi. Qolgan o‘rinlarda esa 1 balldan baholanadi. Men o‘quvchilarni dars davomida “Issiq kartoshka” va “Futbol o‘yini” metodlari orqali o‘quvchilarni baholadim.

Tajriba natijalari va tahlil. Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, ona tili darslarida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish va amalda qo‘llashga o‘rgatish ularning jamiyatda kommunikativ aloqaga kirishlarida og‘zaki va yozma muloqot jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlab beradi. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, ijodiy va o‘yinli yondashuvlar nafaqat darsni jonlantiradi, balki o‘quvchilarni fan mohiyatini anglashga, o‘z fikrini ifodalashga va o‘zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga darsda qoniqarli o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham darsga jalb qilish hamda ularning ham iqtidorlarini kashf qilishda boshqa fanlar bilan integratsiya qilgan holda vazifalar berish kerak, bunga tajriba jarayonidagi kuzatuvlar asosida xulosaga kelindi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. – 144 b.
2. Mavlonova K. va boshq. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma (7-sinf). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2022. – 120 b.
3. Usmonboyeva M., To‘rayev A. Kreativ pedagogika asoslari: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016. – 98 b.
4. Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy jihatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – Vol. 3, Issue 1. – B. 85–91.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 400 b.